

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTILINIVERSITETI



Rektor
Sh. Sirajiddinov

"PRAGMALINGVISTIKA"

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230700 – Amaliy filologiya

Toshkent-2023

W

Fan/modul kodi 302 PL 6 2	Fan/modul turi Tunlov	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024							
Semestr	Har bir semestrdaagi modulning nomi	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)			Jami yuklama (soat)				
			Jami:	ma'ruza	seminar		amaliy laboratoriya			
6	Pragmalingsvistika	2	2	30	10	0	20	0	30	60
	Jami:	2	2	30	10	0	20	0	30	60

1. FANNING MAZMUNI

bugungi kunda iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining ommalashuvi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashtirib, filshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga e'tiborni kuchaytirdi. Natijada fanda sotsiolingsvistika, psixolingsvistika, neyrolingsvistika, etnosotsiolingsvistika, pragmalingsvistika, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik), etnolingsvistika kabi nomlar bilan yuritiluvchi yangi tarmoqlar shakllandi. Bu yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtirgan yangi davr filshunosligi tilga nutqiy faoliyat – fikr almashib va o'zgalarga ta'sir ko'rsatib, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta'sirchanligi, muantiqligi tadqiqini birinchi o'ringa qo'yadi. Xususan, bugungi kunda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning implikaturalari bo'lgan ko'chma va tag ma'nolarni, ochiq ifodalannagan, lekin ifodalanishi so'zlovchining maqsadi bo'lgan ma'lumot-axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi.

Tilning voqelanishida inson omili bilan bog'liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingsvistik yo'nalishning o'rganish manbaini tashkil etadi. Xullas, pragmalingsvistika (lingvopragmatika) til birliklaridan foydalanuvchi shaxs yoki so'zlovchining til belgilariga munosabatini o'rganuvchi filshunoslik aspektlaridan biri bo'lib, uning maqsadi-tilni matnda o'rganishdir, ya'ni tilni axborot-kommunikativ vositachi sifatida tadqiq etishdir.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga ilsoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishida vaziyat va shaxs omili masalalarini tadqiq qiluvchi hamda ona tilidan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy masalalari yuzasidan bahs qiluvchi pragmalingsvistika muammolari haqida bilim berish hamda turli matnlarni lingvopragmatik tahlil etishga o'rgatish.

–Pragmalingsvistika” fanining vazifalari:
antropotsentrik lingvistik paradigmalarni bilish;
pragmalingsvistikadagi asosiy tushunchalar va terminlarni farqlash, singdirish;

zamonaviy pragmalingsvistikadagi yo'nalishlar (funktsional va yashirin) bilan tanishtirish;

nutqiy faoliyat tushunchasini anglash, nutqiy akt nazariyasi bo'yicha nazariy bilim hosil qilish, nutqiy muloqot jarayoni tizimini aniqlash bo'yicha malaka hosil qilish;

presuppozitsiya nazariyasi, deysis, diskurs va matn tushunchalari bilan tanishtirish;

ilsoniy imkoniyatlarning pragmatik xoslanishini o'rganish.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

– til imkoniyatlarining nutq, muloqot maqsadi, vaziyatiga ko'ra namoyon bo'lishi;

–muloqot va nutq jarayonida til birliklarining ilsoniy va nolisoniy omillar asosida namoyon bo'luvchi pragmatik xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va baholash tamoyillarini bilish;

–til birliklariga xos pragmatik belgi-xususiyatlarni farqlash;

–nutq va matn tabiatidan kelib chiqqan holda pragmatik ma'nolarni ochib berish.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

–Pragmalingsvistika” fanini o'qitishda interfaol metodlar, xususan, nutq bilan ishlash, pragmatik tahlil, nutq pragmatikasi, analiz, sintez, statistik, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, pragmalingsvistik malakalarni rivojlantirishga qaratilgan boshqa metod va usullardan foydalaniladi.

4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom” Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Pragmalingsvistika fanidan 60 soat (6-semestrda 60) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 2 (6-semestrda 2) kredit beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: 1 ta.

1-oraliq nazorat og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Pragmalingsvistika fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga og'zaki javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savollariga talaba og'zaki javob beradi, Variant savolnoma savollari pragmalingsvistika mavzulariga tegishli manbalar mazmuni qamrab oladi. Har bir savol uchun 10 daqiqa, jami 3 ta

savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Og'zaki nazoratni baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat: Pragmalingsvistika fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari pragmalingsvistika mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 1 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezonlari Talaba jami savollardan 28-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 24-27 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-23 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilimini baholash mezonlari:

5 baho. Talaba pragmalingsvistikaga oid bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirgan, pragmalingsvistika birliklarini tizimlashtira oladi va pragmalingsvistikaga oid bilimlarini nazariy jihatdan aniq va mantiqiy bayon qila oladi. Amaliy jihatdan pragmalingsvistik ko'nikmalarini to'g'ri qo'llay oladi, pragmalingsvistika bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, pragmalingsvistikaga oid qitayin masalalarga yechim topa oladi, pragmalingsvistika bo'yicha ilmiy terminologiyani erkin ishlata oladi.

4 baho. Talaba pragmalingsvistikaga oid bilimlarni o'zlashtirgan, pragmalingsvistika birliklarini tizimlashtira oladi va pragmalingsvistikaga oid bilimlarini bayon qila oladi. Amaliy jihatdan pragmalingsvistik ko'nikmalarini qo'llay oladi, pragmalingsvistika bo'yicha savollarga javob bera oladi. Shuningdek,

pragmalingsvistikaga oid murakkab bo'lmagan masalalarga yechim topa oladi, pragmalingsvistika bo'yicha ilmiy terminologiyani qisman ishlata oladi.

3 baho. Talaba pragmalingsvistik bilimlarni sayoz o'zlashtirgan, pragmalingsvistika tushunchalarini tizimlashtirishda, pragmalingsvistikaga oid bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan bog'lashda, pragmalingsvistikaga oid oddiy masalalarni hal qilishda qiyinatiladi, pragmalingsvistika bo'yicha ilmiy terminologiyani to'g'ri qo'llay olmaydi.

2 baho. Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

6-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Pragmalingsvistikaning predmeti va vazifalari	Pragmalingsvistikaning predmeti, faoliyat nazariyasi, tilshunoslik, antropologik, lisoniy hodisalar	2
2	Pragmatik va semiotik jarayon	Pragmatika, semiozis, reprezentamen, interpretator, semiotik jaraen, lisoniy belgining semiotik bo'laklari.	2
3	Pragmalingsvistikaning yo'nalishlari	Funksional, diskurs, lisoniy birliklar, yashirin, muloqot hulqi me'yori, muloqot odobi, pragmalingsvistika, o'zbek substansial-pragmatik yo'nalishi	2
4	Nutqiy akt nazariyasi	Substansial-pragmatika, kommunikativ maqsad, nutqiy harakatlar, lokusiya, illokusiya, perlokusiya, propozitsiya.	2
5	Semantika va pragmatika munosabati	Semantika, pragmatika, pragmatik mazmun, pragmatik xususiyatlar, kommunikatsiyaning asosiy sharti, propozitsiya, referentsiya, diskursiv tablihi nazariyasi.	2
Jami:			10 st.

2. Amaliy mashg'ulotlar

	iboralar, anafora, deyktik makomning uzoq va yaqinligi, taqvimli belgilar. deyksisning temporal mazmun ifodasining manbalari, diskurs deyksisi. emosional deyksis, sosial deyksis,	Jami: 20 st.
--	--	---------------------

3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- pragmalingsvistika tadqiqi tarixi materiallari bilan mustaqil ravishda tanishish, ularni konspektlashirish;
- pragmalingsvistik ko'nikmalarni shakllantirish;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- muayyan mavzu bo'yicha tezis yoki maqola tayyorlash;
- amaliy mavzu bo'yicha ijodiy ishlash;
- belgilangan mavzular bo'yicha taqdimot tayyorlash.

Taqdimotlar seminar mashg'ulotlarida muhokama qilinadi va baholanadi.

Nö	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Ilmiy paradigmatlar	Lingvistik paradigmatlar, Paradigma, Tilshunoslik, lisoniy strukturalar, lisoniy nutqiy voqelanishi,	2
2	Pragmatika va pragmatizm	Pragmatika, pragmatizm g'oyalari, tilshunoslik, semiotika	2
3	Diskurs va uning turlari	Diskursning tuzilishi, muloqot faoliyati, muloqot strukturalari, kommunikativ mazmun, informativ mazmun, yaxlitlik va tugallanganlik, matnning pragmatik xususiyati, matnning lisoniy-nutqiy sistema ekanligi, diskurs lisoniy, shaxsiy va vaziyat omili muvofiqlashtirilgan sistema ekanligi.	2
4	Ch.Pirs ta'limoti	Semiozis, Rerezentamen, Interpretator.	2
5	J.Ostinning nutqiy aktlarni guruhlarga ajratishi va ularni misollar asosida o'rganish	verdikativlar, ekzersitivlar, komissivlar, bexabitivlar, ekspozitivlar	2
6	J.Serlning nutqiy aktlarni guruhlarga ajratishi va ularni misollar asosida o'rganish	assertivlar, direktivlar, komissivlar, deklarativlar, espressivlar	2
7	J.L.ichning hurmat tamoyili	Xushmuomalalik. Himmat, olijanoblik. Ma'qullash. Kamtarlik. Rizolik; Xush ko'rish, yoqtirish. Sosiopragmatikada hurmat kategoriyasi.	2
8	Pragmatik presuppozitsiya hodisasi	Semantik va pragmatik presuppozitsiya. Pragmatik presuppozitsiyaning matnga xosligi. Sosiopragmatik tahlil asoslari.	2
9	Pragmalingsvistikada hamkorlik tamoyili	maksima-tamoyillar. Miqdor tamoyili. Sifat tamoyili. Mavzuga oidlik tamoyili. Muloqot uslubi tamoyili.	2
10	Deyksis va nutqiy muloqot matni	Shaxs deyksisi, makon deyksisi, zamon deyksisi, inklyuzivlik, shaxs deyksisini ifodalovchi	2

Nö	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Pragmalingsvistik tahlil asoslari (Ma'ruza	Pragmalingsvistika, tahlil, pragmatika	2
2	Falsafiy pragmatizm yo'nalishi asoschilari	Ma'ruza	Falsafiy, pragmatizm, yo'nalishlar	2
3	Nutqiy akt nazariyasi	Ma'ruza	Nutqiy akt nazariyasi, nutq akti, pragmatik tahlil	2
4	Muloqot odobi va hulqi	Ma'ruza	Muloqot odobi, muloqot hulqi, muloqot jarayoni	2
5	Diskurs turlari	Ma'ruza	Diskursning turlari, diskursning tasnifi, diskursiv tahlil tarixi	2
6	Etnososiopragmatika	Amaliy	Etnolingsvistika, sosiolingsvistika, pragmalingsvistika	2

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

I Asosiy adabiyotlar:

1. Hakimov M. O'zbek tili pragmatikasini o'rganish. Farg'ona, 2011.
2. Safarov Sh. Pragmalingsvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

II Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Kenjebalina G.N. Lingvopragmatika. Pavlodar, 2012...
4. Pardaev A. Yordamchi turkumlarining substansial va pragmatik xususiyatlari. – T., 2013.
5. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnososiolpragmatik tahlili asoslari. – Samarqand, 2007.
6. Bogdanov V.V. Recherche obucenie: pragmaticshekie i semanticheskie aspekti. – L., 1990.
7. Vaxtel N.M. Pragmalingsvistika v tablisax i sxemax. Voronej, 2006.
8. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O'FA, 1985 6-son.
9. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. DDA, T.2001
10. Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: filol.fanlari nomz. diss. ...avtoref. – Samarqand, 1993.
11. Zaripov R.E. Bilingualism, plurilingualism expansion and sociolinguistic analysis in Uzbekistan during the years of independence // Middle European Scientific Bulletin. ISSN: 2694-9970. **IFSI Impact Factor: 5.985**. Current Issue Vol. 6 (2020) Published November 5, 2020. Page. 67-71.
12. Zaripov R. E. O'zbek diasporasida bilingvizm, multilingvizmning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati // Uza. – Toshkent, 24.10.2020-y. – B. 212-224. <http://uzauz/upload/iblock/168/ZBEK-DIASPORASIDA-BILINGVIZM.pdf>
13. Zaripov R.E. Multilingvlar va bilingvlar nutqida lukunalarining ifodalinishi // TI va adabiyot ta'limi. Toshkent, 2020. – №6. – B. 36-37
14. Zaripov R.E. Uzbekistonda Uzbek-tojik bilingvizmining shakllanishi omillari va istisloq inqilabidagi holati // "Masalaxon mubrami filologiya Uzbek va tojik" // "Uzbek tojik filologiyasining dolzarb masalalari" onlayn konferensiya materiallari. "Hurri matnifag". – Xuchid, 2020. – B. 11-14.
15. Zaripov R.E. Kognitiv rivojlanish va tarjima jaryonida iktitlilik va ko'ptililikning roli // "Qiyosiy adabiyotshunoslik: o'tmishi, buguni, istiqbolari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr. – B. 194-197.
16. Zaripov R.E. Etnososiolpragmatika maqsadi, vazifalari va tadqiq birliklari // "Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami. Toshkent – 18.05.2022. B. 299-302.
17. Zaripov R.E. Etnososiolpragmatikada amaliy mashg'ulotlarni tashkilotirish, topshiriqlar va ular bilan ishlash // "Lingvodidaktikaning dolzarb

7	A.Yu.Maslovanning tadqiqotlari	Amaliy	Lingvokulturologiya, pragmatika, lingvistik birliklar	2
8	G.N.Kenjebalina "Lingvopragmatika"	Amaliy	Lingvopragmatika, pragmatika, pragmatic tahlil	2
9	Fonemalarning xususiyatlari.	Amaliy	Fonemalar, pragmatika, nutq, tovush	2
10	Qiyosiy pragmatik tahlil	Amaliy	Qiyosiy pragmatik tahlil, pragmatika, pragmatik yondoshuv	2
11	Olmoshlarning xususiyatlari	Amaliy	Olmoshlar, Pragmatik, Pragmatik xususiyatlar	2
12	Pragmalingsvistikaga tadqiqotlar tahlili	Amaliy	Pragmalingsvistika, tadqiqotlar, pragmatic tahlil	2
13	Yuklamalarning pragmatik tahlili	Amaliy	Yuklamalar, pragmatik tahlil, talqin	2
14	Ko'makchilarning pragmatik tahlili	Amaliy	Ko'makchilar, pragmatik tahlil, talqin	2
15	Bog'lovchilarning pragmatik tahlili.	Amaliy	Bog'lovchilar, pragmatik tahlil, talqin	2
			Jami:	120 st.

masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami. Toshkent – 18.05.2022. B. 346-350.

III Elektron ta'lim resurslari:

18. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
19. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>
20. homepages.iversu.ru/~ips/pragmf.html
21. zpopova@phil.vsu.ru

7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023___yil ___ "___" ___dagi ___ "___"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Amaliy filologiya" kafedrasi mudiri, **f.f.d., prof.**

B.Mengliyev _____ (imzo)

Tuzuvchi:

R.Zaripov _____ (imzo)
"Amaliy filologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.d.(PhD).

Taqrizchilar:

Muhamedova S. _____ (imzo)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Raupova L. _____ (imzo)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.